

O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARDA KUZATILADIGAN AGRESSIV HOLATLARI ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA MUAMMO SIFATIDA

Sheraliyev Qurbonmurot Normurodovich

Angor tumani 40-maktab amaliyotchi psixologi

Buranova Adolat Ibragimovna

Angor tumani 22-sonli maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya Ushbu maqola agrissivlik xulqining o‘smirlar balki ijtimoiy guruh va jamiyat uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligi agrissivlik o‘smirlarning patologik xulq mexanizmlari asoslangan tipologiyaning modelini yaratish dolzarb muammoligicha qolmoqdaligi bayon qilingan.

Kalit so‘z: agressivlik ,patologik xulq-atvor,zamonaviy psixologiya ,axloqiy ta’sirlar,o‘smirlik davri.

Hozirgi zamonda turli yosh davrlariga xos agrissivlik xulqining psixoprofilaktikasi va korreksiyasi xususidagi masalaga oydinlik kiritishga etibor haddan ziyod ortgan. Zamonaviy psixologiya fanida ushbu muammoga bag‘ishlangan psixoanalitik, frustratsion, hamda bixevioristik tadqiqotlarning o‘rni ham salmoqlidir. Ammo, bizningcha, agrissivligini o‘smirlarning patologik xulq mexanizmlari asoslangan tipologiyaning modelini yaratish dolzarb muammoligicha qolmoqda. Agrissivlik xulqining yani o‘smirlar balki ijtimoiy guruh va jamiyat uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Sir emaski, insonning xulq-atvori o‘zgaruvchan va rang-barang bo‘lib, uning individual xususiyatlari, o‘ziga xos «uslublari»ning mavjudligi hech qachon va hech kimda hech qanday shubha tug‘dirmaydi. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o‘zaro muloqoti, o‘zaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. Malumki, har bir jamiyat o‘zining qat’iy belgilangan ijtimoiy xulq-atvor

dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, odatlar, axloqiy tamoyillar, ananalar kuchiga tayanuvchi xulq-atvor qoidalariga ega. Qabul qilingan meyorlar xulq-atvorning tarixan shakllangan qoidalari sifatida talqin qilinadi, shu bilan birga u baholovchi vazifaga ham ega. Unga muvofiq ravishda har qanday harakat «to'g'ri» yoki «noto'g'ri» «yaxshi» yoki «yomon» deb tavsiflanadi. Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy tasirlarning obekti hisoblanadi (E.G'.G'oziyev, 2002). Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi. Afsuski, biz bazan inson haqida fikr yuritganimizda sog'liq, kasallik va uchinchi sog'liqqa ham, kasallikka ham qo'shilmaydigan bir holat haqida fikr yuritishimizga to'g'ri keladi. Jahon fani, xususan tabobat ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» kitobida sabablar to'rt xil bo'ladi: moddiy, faol (tasir qiluvchi), shakliy va tugallovchi sabablarni ko'rsatib o'tadi. Moddiy sabablar sog'liq va kasallik negizlarida paydo bo'ladi. Eng yaqin negiz azo ruhdir. Tasir qiluvchi sabablar odam gavdasining holatlarini o'zgartiruvchi yoki o'zgarmagan holda saqlovchi sabablardir. Jumladan uyqu va uyg'oqlik ham sabablardan biridir. Bir yoshdan boshqa bir yoshga o'tish, yosh, jins etibor bilan farqlash ham tasir qiluvchi sabablardandir. Shakliy sabablar – mijozlar ulardan keyin paydo bo'ladigan quvvatlar va tarbiyalardir. Tugallovchi sabablar faoliyat (ishlar)dir. Faoliyatni o'rganishga quvvatlar va ularni tashuvchi ruhlarni o'rganish ham kiradi. Tabibning tasavvur qilib, dalil keltirmog'i zarur bo'lgan narsalar kasalliklar, ularning o'ziga xos sabablari, alomatlari va qanday qilib kasallikning ketkazilishi va sog'liqni saqlashidir. Aynan o'smirlik yoshida agrissivlik hulqining miyoridan og'ishi kuzatiladi. O'smirlik davriga xos agrissivlik xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va manaviy-axloqiy

mevorlarni tan olmasligi, talim-tarbiya bilan shugullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Bunday toifadagi o'smirlar xulqidagi o'zgarishlarga binoan quyidagilarga:

- xulq ifodalanishiga ko'ra, yuqori tajovuzkor (agressiya) ko'rinishidagilar;
- jinoyatchilik «qurboniga» aylanuvchilar;
- muomala va o'zaro munosabatlarda «qiyinchilik»ni his etuvchilar kabi

kategoriyalarga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur muammoning tadqiqi bilan shugullangan bir qator olimlarning fikricha, sodir etilgan har o'nta jinoyatdan olti-sakkiztasini ijtimoiy dezadaptatsiyani bartaraf qilish orqali samarali amalga oshirish mumkin. Xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablar (etiopatogenezi) tibbiy va korreksion chora-tadbirlarni amalga oshirish miqdori - kompleks yondashuvni talab etadi. Zero, yildan-yilga o'smirlar xulq-atvoridagi buzilishlar, agressivlik, ularning intellektual-yemotsional-irodaviy rivojlanishdan ham orqada qolish holatlari ortib borayotganidan dalolat bermoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda yoshlarning faol ishtirokini taminlash, yuksak manaviyatli, mustaqil va erkin fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirgan har tomonlama soglom va barkamol avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish maqsadida Yurtboshimiz tomonlaridan 2017 yil 5 iyuldagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Ozbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qollab- quvatlash togrisida" gi PF-5106-sonli ,2017 yil 7 fevraldagi "Ozbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha Harakatlar strategiyasi togrisida" gi PF-4947-sonli Farmonlarida belgilangan yoshlarga ijodiy intellektual salohiyatini royobga chiqarishda komaklashish,2019 yil 12 iyuldagi Oquvchilarni psixologik –pedagogik qollab –quvatlash ishlarini yanada takomillashtirish togrisida gi 577-sonli Qarorlarida belgilangan turli yosh davrida ukuvchilarning shaxsiy aqliy va ijtimoiy rivojlanishini psixologik jixatdan kuzatib boorish,talim tarbiyadagi psixologik nuqsonlarni

aniqlash,ularni aqliy taraqqiyotida sodir bolishi mumkin bolgan har qanday salbiy ogishlarni oldini olish;uquvchilar talim muassasasining ijtimoiy muxitga moslasha olmasligi holatlarini korreksiyalash,ularni ijtimoiy realibitatsiya qilish boyicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish kabi umumiy orta talim maktablarida talim-tarbiya jarayonlarini psixologik jixatdan taminlash vazifalari ijrosiga xizmat qiladi.Yuqoridagi fikrlar o'smir xulq-atvoridagi agrissivliklikni profilaktika va korrektsiya qilish muammosining dolzarbligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Baymuradov .N Amaliy psixologiya T.” Yangi asr avlodi ” 2008.- 316 b -78-79b.
2. G‘oziyev E.E.Ontogenez psixologiyasi T. 2015.-286 b- 144b
3. Ya.M.Fayziyev E.H.Eshboyev Umumiy va tibbiy psixologiya T.Abu ali ibn sino nomidagi tibbiyot nashri 2003 yil 143 b-12b
4. E.E.G‘oziyev Umimiy psixologiya 1 kitob T.2002 238 b- 89 b
5. M.E.Zufarova Umimiy psixologiya T.O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2010 .-304b-266-b.
6. JUREVA, SN, and BA MAMARADJABOVA. "The degree to which a person feels happy in the family." *JOURNAL OF CRITICAL REVIEWS* 7.5 (2020): 1873-1875.
7. Abdilkhakimovna, Mamaradjabova Bogzoda. "Influence of self-consciousness of a person on family relationships and its psycho-correction." (2022).
8. Mamaradjabova, B. A., and Allamov Jasur. "JAMOANI SHAKLLANTIRUVCHI TRENING MASHG ‘ULOTLARINING NAZARIY ASOSLARI." *E Conference Zone*. 2023.
9. Mamaradjabova, B. A. "PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF THE PHENOMENON OF HAPPINESS IN THE PROCESS OF PERSONAL SELF-REALIZATION." *World Bulletin of Social Sciences* 23 (2023): 64-69.
10. Мамаражабова, Богзода Абдилхакимовна. "Роль сознания в деятельности человека." *Проблемы науки* 6 (42) (2019): 106-107.